



## MATEMATIKAGA IXTISOSLASHTIRILGAN BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISH METODLARI

**Primova M.F**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti o'qituvchisi*

**Samadova M.Bahtiyor qizi**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti talabasi*

**Ibragimova M.Nurilla qizi**

*Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada matematikaga ixtisoslashtirilgan boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish metodlari yoritilgan. Xususan, muammoli ta'lim, interfaol metodlar, didaktik o'yinlar, individual yondashuv hamda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish va mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish yo'llari ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** matematika, boshlang'ich ta'lim, ixtisoslashtirilgan sinf, metod, muammoli ta'lim, interfaol metod, didaktik o'yin, individual yondashuv, AKT, mantiqiy fikrlash

Oxirgi yillarda yurtimizda maktablarda matematika o'qitish, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'z ko'lamini va ahamiyatini jihatidan katta ahamiyatga ega. Hozirgi davrda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, o'quvchilarning intellektual salohiyatini oshirish va ularni raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, matematika fanini chuqurlashtirib o'qitish boshlang'ich ta'lim bosqichidan boshlab yo'lga qo'yilishi muhimdir.

Metodika grekcha so'z bo'lib, "metod" degani "yo'l" ma'nosini anglatadi. Matematika metodikasi pedagogika fanlari tizimiga kiruvchi pedagogika fanining tarmog'i bo'lib, jamiyat tomonidan qo'yilgan o'qitish qonuniyatlarini matematika rivojining ma'lum bosqichida tatbiq qiladi. O'qitishda yangi maqsadlarning qo'yilishi matematika o'qitish mazmunining tubdan o'zgarishiga olib keladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematikadan samarali ta'lim berilishi uchun o'qituvchi boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasini egallab, chuqur o'zlashtirmog'i zarur. Matematika boshlang'ich ta'lim metodikasining predmeti quyidagilardan iborat:

1. Matematika o'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadni asoslash (nima uchun matematika o'qitiladi, o'rgatiladi).

2. Matematika o'qitish mazmunini ilmiy ishlab chiqish (nimani o'rgatish) bir tizimga keltirilgan bilimlar darajasini o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladigan qilib qanday taqsimlansa, fan asoslarini o'rganishda izchillik



ta'minlanadi, o'quv ishlariga o'quv mashg'ulotlari beradigan yuklama bartaraf qilinadi, ta'limning mazmuni o'quvchilarning aniq bilim bilish imkoniyatlariga mos keladi.

3. O'qitish metodlarini ilmiy ishlab chiqish (qanday o'qitish kerak, ya'ni, o'quvchilar hozirgi kunda zarur bo'lgan iqtisodiy bilimlarni, malaka, ko'nikmalarni va aqliy faoliyat qobiliyatlarini egallab olishlari uchun o'quv ishlari metodikasi qanday bo'lishi kerak?)

4. O'qitish vositalari - darsliklar, didaktik materiallar, ko'rgazmali qo'llanmalar va o'quv texnika vositalaridan foydalanish (nima yordamida o'qitish).

5. Ta'limni tashkil qilishni ilmiy ishlab chiqish (darsni va ta'limning darsdan tashqari shakllarini qanday tashkil etish).

O'qitishning maqsadi, mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari metodik jihatlarining asosiy tarkiblarida murakkab, uni o'ziga xos grafik bilan tasvirlash mumkin.

Matematikaga ixtisoslashtirilgan boshlang'ich sinflar o'quvchilarning matematik qobiliyatlarini erta aniqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu jarayonda o'qitish metodlarini to'g'ri tanlash va samarali qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan boshlang'ich bosqichda shakllangan bilim va ko'nikmalar keyingi ta'lim bosqichlari uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Ixtisoslashtirilgan sinflarda o'quv jarayoni umumta'lim sinflariga nisbatan murakkabroq va chuqurlashtirilgan bo'ladi. Bu sinflarda:

- murakkabroq masalalar beriladi;
- mantiqiy fikrlashga alohida e'tibor qaratiladi;
- o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Shuningdek, bu sinflarda o'quvchilar faqat bilim olish bilan cheklanmay, balki matematik tafakkur, tahlil qilish va muammolarni yechish ko'nikmalarini ham egallaydilar.

Muammoli ta'lim metodida o'qituvchi o'quvchilar oldiga muammoli vaziyat yaratadi. Bu esa o'quvchilarni mustaqil izlanishga undaydi. Masalan, o'quvchilarga oddiy misol berish o'rniga, ularni o'ylashga majbur qiladigan savollar qo'yiladi.

Bu metodning afzalliklari:

- \*o'quvchilarning fikrlash faolligi oshadi;
- \*muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyati shakllanadi;
- \*bilimlar mustahkam o'zlashtiriladi.

Interfaol metodlar darsni jonlantiradi va o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Eng samarali interfaol metodlar:

“Aqliy hujum”

“Klaster”

“Insert”

“Baliq skeleti”





Bu metodlar orqali o'quvchilar erkin fikrlaydi, o'z g'oyalarini bildiradi va jamoaviy ishlashni o'rganadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun o'yin orqali o'qitish eng samarali usullardan biridir. Didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarning darsga qiziqish ortadi, bilimlarni oson o'zlashtiradi, o'quvchilar orasida sog'lom raqobat muhiti yuzaga keladi.

Masalan, "Kim tez topadi?", "Matematik domino", "Sonlar zanjiri" kabi o'yinlar o'quvchilarning bilimini mustahkamlaydi.

Har bir o'quvchining qobiliyati turlicha bo'lganligi sababli, individual yondashuv muhim hisoblanadi. Bu metod orqali kuchli o'quvchilarga murakkabroq topshiriqlar beriladi, qiyinchilikka duch kelayotgan o'quvchilarga qo'shimcha yordam ko'rsatiladi. Natijada har bir o'quvchi o'z imkoniyatiga mos ravishda rivojlanadi.

Mustaqil ishlar o'quvchilarning bilimini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonda masalalar yechish, test topshiriqlari bajarish, mantiqiy masalalarni tahlil qilish amalga oshiriladi. Amaliy mashg'ulotlar esa nazariy bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, matematikaga ixtisoslashtirilgan boshlang'ich sinflarda o'qitish metodlarini to'g'ri tanlash va ularni samarali qo'llash o'quvchilarning bilim darajasini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, muammoli ta'lim, interfaol metodlar, didaktik o'yinlar va individual yondashuvning uyg'unligi yuqori natijalarga erishishga yordam beradi.

Kelajakda ta'lim samaradorligini oshirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish va o'qituvchilarning metodik mahoratini oshirish zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumayev Mamanazar Ergashevich, Tadjiyeva Zumrad G'iyosovna. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent-"Fan va texnologiya"-2005.
2. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2017.
3. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: "O'qituvchi", 2016.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha davlat ta'lim standartlari. – Toshkent, 2021.
5. Jumayev M. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 2018.